

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
QO‘QON DAVLAT UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”
Qo‘qon davlat universiteti
rektori D.Sh.Xodjaeva
29-avgust 2025-yil

CHIZIQLI ALGEBRA VA ANALITIK GEOMETRIYA
O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi: 500000 — Tabiiy fanlar, matematika va statistika
Ta’lim sohasi: 530000 – Fizikaga oid fanlar
Ta’lim yo‘nalishi: 60530700 – Astronomiya

Qo‘qon-2025

Fan/modul kodi CG1106		O‘quv yili 2025-2026	Semestr 1	ECTS – Kreditlar (5) 1-semestr 5	
Fan/modul turi Majburiy		Ta’lim tili O‘zbek/rus		Haftadagi dars soatlari 1-semestr 4	
1.	Fanning nomi	Auditoriya mashg‘ulotlari (soat)		Mustaqil ta’lim (soat)	Jami yuklama (soat)
	Chiziqli algebra va analitik geometriya	60 1-semestr 60	90 1-semestr 90	150 1-semestr 150	
2.	I. Fanning mazmuni Fanning maqsadi – talabalarni matematikaning zaruriy ma’lumotlari majmuasi (tushunchalar, tasdiqlar va ularning isboti, amaliy masalalarni yechish usullari va boshqalar) bilan tanishtirish xamda matematika yo‘nalishlarining o‘zviy bog‘liqliklarini o‘rganishdan iboratdir. Ayni paytda u talabalarni mantiqiy fikrlashga, to‘g‘ri xulosa chiqarishga, matematik madaniyatini oshirishga xizmat qiladi. Talabalarni mantiqiy fikrlashga, nazariy bilimlarni amaliyotga bevosita tatbiq etish, to‘g‘ri xulosa chiqarish va qaror qabul qilishga o‘rgatish, hamda ko‘nikma va malakalarni berishdan iborat. Fanning vazifasi – talabalarni mantiqiy fikrlashga, to‘g‘ri xulosa chiqarishga, matematik madaniyatini oshirishga o‘rgatish. Bundan tashqari talabani keyinchalik o‘qitiladigan boshqa ixtisoslik fanlari va maxsus fanlarni o‘rganishda zarur bo‘ladigan matematik tushuncha va ma’lumotlar bilan tanishtiradi. II. Asosiy nazariy qism (ma’ruza mashg‘ulotlari) II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi: 1-Mavzu. Vektorlar va ular ustida chiziqli amallar. Vektorning o‘qqa proyeksiyasi. Vektorlarning skalyar, vektor ko‘paytmasi va aralash ko‘paytmasi ko‘paytmasi.. Vektor tushunchasi. Vektorlarni qo‘shish va haqiqiy songa ko‘paytirish amallari, hamda ularning asosiy xossalari. Vektorning o‘qqa proyeksiyasi va uning xossalari. Skalyar ko‘paytmaning ta’rifi va uning geometrik xossalari. Skalyar ko‘paytmaning algebraik xossalari. Tartiblangan vektorlarning o‘ng va chap uchliklari. Ikki vektorning vektor ko‘paytmasi ta’rifi. Vektor ko‘paytmaning geometrik va algebraik xossalari. Uchta vektorning aralash ko‘paytmasi. Aralash ko‘paytmaning algebraik va geometrik xossalari. 2-Mavzu. Qutb, silindrik va sferik koordinatalar sistemasini. Tekislikda va fazoda dekart koordinatalar sistemasini almashtirish. Tekislikda qutb koordinatalar sistemasini kiritish. Dekart koordinatalar sistemasini va qutb koordinatalar sistemasini orasidagi bog‘lanish. Fazoda silindrik koordinatalar sistemasini kiritish. Dekart koordinatalar sistemasini va silindrik				

koordinatalar sistemasi orasidagi bog'lanish. Fazoda sferik koordinatalar sistemasini kiritish. Dekart koordinatalar sistemasi va sferik koordinatalar sistemasi orasidagi bog'lanish.

3-Mavzu. Tekislikda to'g'ri chiziq tenglamalari. Fazoda to'g'ri chiziq tenglamalari. Fazoda to'g'ri chiziqlarning o'zaro vaziyati. Tekislik va to'g'ri chiziqlarning o'zaro vaziyati. To'g'ri chiziqning umumiy tenglamasi. To'g'ri chiziqning koordinata o'qlariga nisbatan joylashishi. To'g'ri chiziqning burchak koeffitsiyentli tenglamasi. To'g'ri chiziqning parametrik tenglamasi. Ikki nuqtadan o'tuvchi to'g'ri chiziq tenglamasi. To'g'ri chiziqning parallellik va perpendikulyarlik shartlari. To'g'ri chiziqning kesmalardagi tenglamasi. Nuqtadan to'g'ri chiziqqa bo'lgan masofa. To'g'ri chiziqning normal tenglamasi. Fazodagi to'g'ri chiziqning parametrik va vektor tenglamalari. Fazodagi to'g'ri chiziqning kanonik tenglamasi. Fazodagi to'g'ri chiziqning parametrik tenglamalari. Ikki nuqtadan o'tuvchi to'g'ri chiziq tenglamasi. Ikki tekislikning kesishishidan hosil bo'lgan to'g'ri chiziq. Fazoda to'g'ri chiziqlarning o'zaro vaziyati. Fazodagi nuqtadan to'g'ri chiziqqa bo'lgan masofa. Ayqash to'g'ri chiziqlar orasidagi masofa.

4-Mavzu. Fazoda tekislikning turli tenglamalari. Fazoda tekisliklarning o'zaro vaziyati. Nuqtadan tekislikkacha masofa. Tekislikning umumiy tenglamasi. To'liq bo'lmagan tekislik tenglamalari. Tekislikning kesmalardagi tenglamasi. Nuqtadan tekislikkacha bo'lgan masofa. Tekislikning normal tenglamasi. Bir to'g'ri chiziqda yotmaydigan uchta nuqtadan o'tuvchi tekislik tenglamasi. Tekislikning parametrik tenglamasi.

5-Mavzu. Tekislikda ikkinchi tartibli chiziqlar. Ellips, giperbola va parabolaning kanonik tenglamalari. Ikkinchi tartibli chiziqlar. Ellipsning ta'rifi, kanonik tenglamasi, eksentrisiteti, direktrisasi, fokal radiuslari. Ellips xossalari va uning yasalishi. Giperbolaning ta'rifi, kanonik tenglamasi, eksentrisiteti, direktrisasi, fokal radiuslari. Giperbola xossalari va uning yasalishi. Parabolaning kanonik tenglamasi. Parabola xossalari va uning yasalishi.

6-Mavzu. Ikkinchi tartibli chiziqlarning umumiy tenglamalari. Ikkinchi tartibli chiziq markazi. Markaziy va nomarkaziy chiziqlar Ikkinchi tartibli chiziqlarning umumiy tenglamalari. Parallel ko'chirish va burishda ikkinchi tartibli chiziq tenglamasi koeffitsiyentlarining o'zgarishi. Ikkinchi tartibli chiziq markazi. Markaziy va nomarkaziy chiziqlar.

7-Mavzu. Ikkinchi tartibli chiziq va to'g'ri chiziqning vaziyati. Ikkinchi tartibli chiziqlarning umumiy tenglamasini kanonik ko'rinishga keltirish. Ikkinchi tartibli chiziq va to'g'ri chiziqning o'zaro vaziyati. Asimptotik va noasimptotik yo'nalishlar. Maxsus yo'nalishlar. Ikkinchi tartibli chiziq urinmasi, 3 qo'shma yo'nalishlar va qo'shma diametrlar. Bosh yo'nalishlar. Markaziy chiziqning tenglamasini kanonik ko'rinishga keltirish. Yagona markazga ega ikkinchi tartibli chiziqlarni tasniflash. Nomarkaziy chiziqning tenglamasini kanonik ko'rinishga keltirish. Markazi yagona bo'lmagan va markazga ega bo'lmagan ikkinchi tartibli chiziqlarni tasniflash.

8-Mavzu. Ikkinchi tartibli sirtlarning kanonik tenglamalari. Ikkinchi tartibli sirtlarning to'g'ri chiziqli yasovchilari. Ikkinchi tartibli sirtlar. Sfera, ellipsoid, giperboloid va paraboloidlarning kanonik tenglamalari. Silindrik, konus va to'g'ri chiziqli sirtlar. Bir pallali giperboloid va giperbolik paraboloidning to'g'ri chiziqli yasovchilari haqidagi teoremlar.

9-Mavzu. Ikkinchi tartibli sirtlarning umumiy tenglamasi Ikkinchi tartibli sirtning markazi va diametral tekisligi. Ikkinchi tartibli sirtning urinma tekisligi tenglamasi. Sferaning urinma tekisligi tenglamasi. Ellipsoidning urinma tekisligi.

10-mavzu. Kompleks sonlar va ularning trigonometrik shakli. Muavr formulasi. Kompleks sonlar va ular ustida amallar. Kompleks sonning geometrik tasviri va trigonometrik shakli. Muavr formulasi. Kompleks sonni darajaga oshirish. Kompleks sondan ildiz chiqarish. Birning ildizlari.

11-mavzu. Matritsalar va ular ustida amallar. O'rin almashtirishlar. n-tartibli determinantlar va ularning xossalari. Matritsalar va ular ustida amallar. Chiziqli tenglamalar sistemasini yechishning Gauss usuli. O'rin almashtirishlar va o'rniga qo'yishlar. Kichik tartibli determinantlar. n-tartibli determinantlar va ularning xossalari. Determinantlarni hisoblash usullari.

12-mavzu. Algebraik to'ldiruvchi va minorlar. Kramer formulalari. Teskari matritsa. Algebraik to'ldiruvchi va minorlar. Determinantning qo'shimcha xossalari. Chiziqli tenglamalar sistemasini yechishning Kramer usuli. Teskari matritsa. Chiziqli tenglamalar sistemasini yechishning matsitsaviy usuli.

13-mavzu. Chiziqli fazolar. O'lcham va bazis. Chiziqli bog'liq va chiziqli erkli vektorlar haqidagi teoremlar. Matritsa rangi. Chiziqli (vektor) fazolar. n-o'lchamli fazoning o'lchami va bazisi. Chiziqli bog'liq va chiziqli erkli vektorlar. Matritsa rangi haqidagi teoremlar.

14-mavzu. Chiziqli tenglamalar sistemasini to'la yechish. Bir jinsli tenglamalar sistemasining fundamental yechimlari. Kroneker-Kapelli teoremasi. Chiziqli tenglamalar sistemasining umumiy va xususiy yechimi. Bir jinsli tenglamalar sistemasining fundamental yechimlari.

15-mavzu. Chiziqli qism fazo. Qism fazolarning yig'indisi va kesishmasi. Chiziqli fazoning qism fazosi. Qism fazolarning yig'indisi va kesishmasi 4 haqidagi teoremlar.

III. Amaliy mashg'ulotlari buyicha ko'rsatma va tavsiyalar

Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:

1. Vektorlar ustida chiziqli amallar. Vektorning koordinatalari. Vektorning o'qqa proeksiyasi. Vektorning moduli va yo'naltiruvchi kosinuslari. Vektorlarning skalyar ko'paytmasi. Vektorlarning vektor va aralash ko'paytmasi.
2. Tekislikda koordinatalar sistemasini almashtirish. Qutb, silindrik va sferik koordinatalar sistemi.
3. Tekislikda to'g'ri chiziqli tenglamalari

4. Fazoda tekislik tenglamalari. Nuqtadan tekislikkacha masofa. Fazoda tekisliklarning o'zaro vaziyati.
5. Fazoda to'g'ri chiziq tenglamalari. Tekislik va to'g'ri chiziqlarning o'zaro vaziyati. Fazoda to'g'ri chiziqlarining o'zaro vaziyati.
6. Ellips va uning kanonik tenglamasi. Giperbola va parabolaning kanonik tenglamasi.
7. Ikkinchi tartibli chiziqlarning umumiy tenglamalari. Ikkinchi tartibli chiziq markazi. Markaziy va nomarkaziy chiziqlar. Ikkinchi tartibli chiziq urinmasi, qo'shma diametri tenglamasi.
8. Ikkinchi tartibli sirtlarning kanonik tenglamalari.
9. Chiziqli algebraik tenglamalar sistemalarini yechish usullari. Matritsalar va ular ustida amallar. n -tartibli determinantlar, ularning xossalari. Minorlar va algebraik to'ldiruvchilar. Kramer formulasi. n -tartibli determinantlarni hisoblash. Teskari matritsa
10. Chiziqli fazolar. Chiziqli bog'liqlik va chiziqli erklilik. O'lcham va bazis. Turli bazislarda vektor koordinatalari orasidagi bog'lanish. Qism fazolar. Qism fazolarning yig'indisi va kesishmasi
11. Evklid fazolari. Ortonormal sistemalar. Ortogonallashtirish jarayoni. Ortogonal to'ldiruvchi va ortogonal proeksiya. Unitar fazolar
12. Bichiziqli va kvadratik formalar. Kvadratik formani kanonik ko'rinishga keltirishning Lagranj usuli. Inersiya qonuni. Musbat aniqlangan kvadratik formalar
13. Chiziqli almashtirishlar va ularning matritsalar. Turli bazislarda chiziqli almashtirishlarning matritsalar orasidagi bog'lanish. Chiziqli almashtirishlarning xos sonlari va xos vektorlari. Unitar fazosida chiziqli almashtirishlar
14. Qo'shma almashtirishlar. O'z-o'ziga qo'shma almashtirishlarni diagonal shaklga keltirish. Unitar va normal almashtirishlar.
15. Evklid fazosida ortogonal almashtirishlar. Chiziqli almashtirishning Jordan normal shakli

IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan topshiriqlar:

1. Vektorlar algebrasining iqtisodiy masalalarga tatbiqlari
2. Skalyar ko'paytmaning tenglamalar yechishga tatbiqlari
3. Aylanaga doir turli masalalar
4. Ikkinchi tartibli chiziqlar konik kesim sifatida
5. To'g'ri chiziq va tekisliklarga doir masalalarni vektorlar orqali yechish
6. Ikkinchi tartibli chiziqlarning optik xossalari
7. Ikkinchi tartibli sirtlarning umumiy tenglamalarini kanonik ko'rinishga keltirish
8. Ikkinchi tartibli chiziqlarning umumiy tenglamalari. Ikkinchi tartibli chiziq markazi. Markaziy va nomarkaziy chiziqlar
9. Ikkinchi tartibli chiziq va to'g'ri chiziqning o'zaro vaziyati. Ikkinchi tartibli chiziq urinmasi, qo'shma diametri tenglamasi. Turli yo'nalishlar.

	10. Ikkinchi tartibli chiziqlarning umumiy tenglamasini kanonik ko‘rinishga keltirish (markaziy hol). 11. Ikkinchi tartibli chiziqlarning umumiy tenglamasini kanonik ko‘rinishga keltirish (nomarkaziy hol). 12. Ikkinchi tartibli sirtlarning kanonik tenglamalari. 13. Kompleks sonlar va ular ustida amallar. 14. Matritsalar va ular ustida amallar. O‘rin almashtirishlar. 15. n-tartibli determinantlar va ularning xossalari. Determinantlarni hisoblash. 16. Algebraik to‘ldiruvchi va minorlar. Chiziqli tenglamalar sistemasini yechishning Kramer usuli. 17. Teskari matritsa. Tenglamalar sistemasini yechishning teskari matritsa usuli. 18. Chiziqli fazo tushunchasi. O‘lcham va bazis. 19. Chiziqli erkli va chiziqli bog‘liq vektorlar. 20. Matritsa rangi. Kroneker-Kapelli teoremasi. 21. Chiziqli tenglamalar sistemasining umumiy va xususiy yechimi. Bir jinsli tenglamalar sistemasining fundamental yechimi. 22. Qism fazolar. Qism fazolarning yig‘indisi va kesishmasi. 23. Yevklid fazosi. Ortogonal va ortonormal sistemalar. 24. Ortogonallashtirish jarayoni. Ortogonal to‘ldiruvchi va ortogonal proyeksiya. 25. Matritsa rangini minorlar orqali topish usullari. 26. Chiziqli fazolarning izomorfligi. 27. Kompleks sonlar maydoni ustida berilgan fazodagi kvadratik formalar va ularning kanonik shakllari. 28. Ikki kvadratik formani bir vaqtda kanonik ko‘rinishga keltirish. 29. Haqiqiy sonlar maydonida berilgan chiziqli almashtirishlar va ularning kanonik shakllari 30. Chiziqli almashtirishga qo‘shma almashtirishlar.
3.	V. Fan o‘qitilishining natijalari (shakllanadigan kompetensiyalar) Fanni o‘zlashtirish natijasida talaba: • “Analitik geometriya” fanini o‘zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida bakalavr analitik geometriya, oliy va chiziqli algebra haqida tasavvurga ega bo‘lishi; • algebrik tenglamalarni analitik va raqamli yechishda, tenglamalar sistemasini analitik va raqamli yechishda qo‘llay olish bilishi va ulardan foydalana olishi; • matematik belgilar, oddiy tizimlar yordamida jarayonlarni matematik modellashtirish, muayyan iqtisodiy jarayon uchun modellar qurish, qurilgan model doirasida xisoblar olib borishni bilishi va bu bilimlarni eksperiment

	ma'lumotlarini ishlab chiqishning asosiy usul va yo'riqlaridan foydalanishni tadbiq eta bilish <i>ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.</i>
4.	VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari: • ma'ruzalar; • interfaol keys-stadilar; • Amaliy mashg'ulotlar (mantiqiy fiklash, tezkor savol-javoblar); • guruhlarda ishlash; • taqdimotlarni qilish.
5.	VII. Kreditlarni olish uchun talablar: Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish va joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha yozma ishni topshirish.
6.	Asosiy adabiyotlar: 1. Ayupov A.SH., Omirov B.A., Xudoyberdiyev A.X., Haydarov F.H. Algebra va sonlar nazariyasi, Toshkent, «Tafakkur bo'stoni», 296 bet, 2019 y. 2. Поскуряков И.Л. Сборник задач по линейной алгебре. «Наука», 2005. 3. Xojiyev J.X., Faynleyb A.S. Algebra va sonlar nazariyasi kursi. Toshkent, «O'zbekiston», 2001 y. 4. Фаддеев Д.К. Лекции по алгебре. М., «Наука» 1984г. 5. Kenneth Kuttler. Elementary linear algebra. 2012, Ventus Publishing Aps, ISBN 978-87-403-0018-5. 6. Narmanov A.Y. Analitik geometriya. T. Innovatsion rivojlantirish nashriyot-matbaa uyi, 2020 y, 160 bet. 7. Baxvalov S.V., Modenov P.S., Parxomenko A.S. Analitik geometriyadan masalalar to'plami. T. Universitet, 2006. 8. Ильин В.А., Позняк Э.Г. Аналитическая геометрия. М. «Физматлит», 2004. Professor of Mathematics Old Dominion University, Copyright 2012, Qo'shimcha adabiyotlar 1. Gelfand I.M. Chiziqli algebradan leksiylar. «Oliy va o'rta maktab». 1964. 2. Фаддеев Д.К., Соминский И.С. Задачи по высшей алгебре, Санкт Петербург, 1999 г. 3. Кострикин А. И. и др., Сборник задач по алгебре. «Наука», 1986 г. 4. Клетеник Д.В. Сборник задач по аналитической геометрии. М. «Физматлит», 2016. 5. Izu Vaisman. Analytical Geometry. World Scientific, USA, 2007. Axborot manbaalari

	1. https://ocw.mit.edu/courses/18-02sc-multivariable-calculus-fall-2010/pages/1.-vectors-and-matrices/?utm_source 2. https://student.mit.edu/catalog/m18a.html?utm_source 3. https://math.libretexts.org/Courses/Montana_State_University/M273%3A_Multivariable_Calculus/12%3A_Vectors_and_the_Geometry_of_Space/12.6%3A_Quadric_Surfaces?utm_source 4. https://ocw.mit.edu/courses/18-06sc-linear-algebra-fall-2011/pages/syllabus/?utm_source 5. https://ocw.mit.edu/courses/18-06sc-linear-algebra-fall-2011/resources/lu-decomposition/?utm_source 6. https://ocw.mit.edu/courses/18-700-linear-algebra-fall-2013/?utm_source 7. https://f.mirea.ru/upload/medialibrary/6d0/hb3l0emnqiivpt33dicbj9ipbbgzrmcw/2021-2022_09_03_01_%D0%A6%D0%9F%D0%B2%D0%9E%D0%A0%D0%AD_%D0%A4%D0%A4_2019_plx_%D0%9B%D0%B8%D0%BD%D0%B5%D0%B9%D0%BD%D0%B0%D1%8F%20%D0%B0%D0%BB%D0%B3%D0%B5%D0%B1%D1%80%D0%B0%20%D0%B8%20%D0%B0%D0%BD%D0%B0%D0%BB%D0%B8%D1%82%D0%B8%D1%87%D0%B5%D1%81%D0%BA%D0%B0%D1%8F%20%D0%B3%D0%B5%D0%BE%D0%BC%D0%B5%D1%82%D1%80%D0%B8%D1%8F_2.pdf 8. www.ziyounet.uz 9. www.allmath.ru 10. www.exponenta.ru
7.	Fan dasturi Qo‘qon davlat universiteti tomonidan ishlab chiqilgan va universitet Kengashining 2025-yil 29-avgustdagi 1-sonli qarori bilan tasdiqlangan
8.	Fan/modul uchun mas’ullar: M.M.Esonov – QDU, “Matematika” kafedrasida katta o‘qituvchisi, (PhD) M. Ummatova – QDU, “Matematika” kafedrasida katta o‘qituvchisi.
9.	Taqrizchilar: A.M.Bayturayev – Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universiteti “Geometriya va topologiya” kafedrasida dotsenti, fizika-matematika fanlari nomzodi R.T.Zunnunov – O‘zR FA Matematika instituti yetakchi ilmiy xodimi